

GLOBAL IQLIM ISISHINING AQSH VA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Yo'lchiyev Azizbek Baxrom o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti

Xalqaro Iqtisodiyot va Menejment fakulteti

0-1a-24 – guruh talabasi

azizbekyulchiyev2006@gmail.com

+998940924906

Annotatsiya

Global iqlim isishi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga keng qamrovli va jiddiy tasir ko'rsatmoqda. Issiqxona gazlarining ajralishi natijasida atmosferaning isishi kuzatilmoqda shu bilan birga qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, transport va sog'liqni saqlash sohalarini yomon ahvolda keltirmoqda. Bu oziq-ovqat xavfsizligiga, infratuzilmaga, tabiiy resurslarga va iqtisodiyotga jiddiy tahdid solmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishlari natijasida hosildorlik kamayib, iqtisodiyotda bazi bir yuqotishlarga olib kelmoqda. Ushbu maqolada AQSh va O'zbekiston misolida global iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga tasirini tahlil qiladi. Bu davlatlarning ushbu muammoni hal qilish strategiyalari turli xil hidoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni va barqaror rivojlanish choralari samaradorligini ham ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: global iqlim isishi, iqtisodiyot, infratuzilma, urbanizatsiya, qishloq xo'jaligi, energiya, transport, yashil iqtisodiyot, sektor, ekologik muammolar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, BMT va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Karl, Melillo va Peterson (2009) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, AQShda iqlim o'zgarishlari natijasida ekstremal ob-havo hodisalari sezilarli darajada ortgan va har yili infratuzilma, qishloq xo'jaligi hamda sanoatga milliardlab dollar zarar yetkazmoqda. Lal, Alavalapati va Mercer (2011) o'z tadqiqotlarida global isish tufayli AQShning qishloq xo'jaligi mahsuldorligi 15-20% ga kamayganini, bu esa oziq-ovqat narxlarining oshishiga va iqtisodiy o'zgarishlarga sabab bo'lganini ko'rsatgan. Bundan tashqari, transport va energetika sohalarida ham iqlim o'zgarishlari tufayli yillik iqtisodiy yo'qotishlar 200 milliard dollardan oshganligi qayd etilgan. Mirzabaev (2013) tomonidan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishlari natijasida sug'oriladigan yerlarning hosildorligi 10-15% ga kamaygan. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tizimi

asosan sugʻorishga tayanadi va suv resurslarining kamayishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga tahdid solmoqda. Bundan tashqari, issiq havoning ortishi elektr energiyasiga talabni oshirib, energetika sektorida yuklamani oshirmoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, iqlim oʻzgarishlari faqat tabiiy muhitga emas, balki iqtisodiy oʻsish va barqaror rivojlanishga ham sezilarli taʼsir qiladi. Shu sababli, koʻplab mamlakatlar yashil iqtisodiyotga oʻtish va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga eʼtibor qaratmoqda. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar asosida AQSh va Oʻzbekiston iqtisodiyotiga iqlim oʻzgarishining taʼsiri chuqur tahlil qilinadi.

AQSh iqtisodiyotiga iqlim oʻzgarishining taʼsiri

AQSh iqlim oʻzgarishlari natijasida eng katta iqtisodiy yoʻqotishlarga duch kelayotgan davlatlardan biridir. Kaliforniya va Texas shtatlaridagi yirik oʻrmon yongʻinlari, Florida va Luizianadagi boʻronlar va suv toshqinlari natijasida infratuzilma va qishloq xoʻjaligiga katta zarar yetmoqda. Yaqinda boʻlib oʻtgan Kaliforniya va Texas shtatlaridagi yirik oʻrmon yongʻini natijasida ham juda katta iqtisodiy zarar olib kelindi. Bundan tashqari, AQShda qurgʻochilik va haddan tashqari issiq ob-havo natijasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish qiyinlashmoqda. Midwestern shtatlarida hosildorlik pasayishi va suv resurslarining kamayishi dehqonchilikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. 2021 yilda chop etilgan AQSh Qishloq Xoʻjaligi Departamentining hisobotiga koʻra, iqlim oʻzgarishlari natijasida yillik paxta va bugʻdoy hosildorligi 10-15% ga kamaygan. Sanoat sektorida esa energetika tizimi sezilarli bosim ostida qolmoqda. Haddan tashqari issiq yoz davrida elektr energiyasiga talab oshib, tizim haddan tashqari koʻp ishlamoqda. Shamol va suv resurslaridan foydalanuvchi muqobil energiya manbalariga sarmoya kiritish orqali AQSh hukumati bu muammolarni bartaraf etishga harakat qilmoqda.

Oʻzbekiston iqtisodiyotiga iqlim oʻzgarishining taʼsiri

Oʻzbekiston asosan qishloq xoʻjaligiga tayanadigan davlat boʻlgani sababli, iqlim oʻzgarishlari bu sohaga katta taʼsir oʻtkazmoqda. Mirzabaev (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, sugʻoriladigan yerlarning hosildorligi 10-15% ga kamaygan, suv resurslariga talab ortgan, lekin yetarli taʼminot yoʻqligi sababli hosildorlik pasaymoqda. Shuningdek, Oʻzbekistonda yozning haddan tashqari issiq boʻlishi nafaqat qishloq xoʻjaligi, balki sanoat va urbanizatsiya jarayonlariga ham taʼsir koʻrsatmoqda. Energetika sektorida elektr energiyasiga boʻlgan talab ortib, ishlab chiqarish tizimiga yuklama oshmoqda. Sovutish tizimlarining koʻpayishi va gidroenergetika tizimining suv yetishmovchiligi sababli barqaror energiya taʼminoti muammoga aylanmoqda. Iqlim oʻzgarishlari, shuningdek, aholining sogʻligʻiga ham taʼsir qilmoqda. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlar atrofida havo sifati yomonlashmoqda, bu esa nafas yoʻllari kasalliklarining ortishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston hukumati yashil energetika va barqaror suv boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish orqali bu muammolarni hal qilishga harakat qilmoqda.

SWOT tahlili

S Kuchli tomonlari (Strengths) O'zbekiston: • Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (quyosh va shamol) katta salohiyat. • Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish imkoniyatlari mavjud. • Mintaqaviy hamkorlik orqali iqlim muammolariga yechim izlash. AQSh: • Innovatsion texnologiyalar va yashil iqtisodiyotga sarmoyalar ko'paymoqda. • Energiya tejamkor texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. • Iqlim o'zgarishiga qarshi strategiyalar mavjud.	W Zaif tomonlari (Weaknesses) O'zbekiston: • Suv resurslariga bog'liqlik va suv tanqisligi xavfi. • Yoqilg'i-energetika sohasida hali ham ko'mir va gazga bog'liqlik. • Ekologik innovatsiyalar va investitsiyalar yetishmovchiligi. AQSh: • Katta ishlab chiqarish va sanoat sohalari yuqori uglerod chiqindilarini hosil qiladi. • Iqlim siyosatidagi tafovutlar (turli shtatlarda turlicha yondashuv).
O Imkoniyatlar (Opportunities) O'zbekiston: • Qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol) sohasini rivojlantirish. • Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish. • Ekologik turizm va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish. AQSh:	T Tahdidlar (Threats) O'zbekiston: • Cho'llanish jarayoni tezlashishi va ekin maydonlarining qisqarishi. • Suv resurslari kamayishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsuldorligining pasayishi. • Iqlim o'zgarishi tufayli aholining migratsiya jarayonlari ortishi. AQSh:

• Yashil energiya va ekologik toza sanoatni rivojlantirish. • Xalqaro iqlim shartnomalarida yetakchilik qilish. • Iqlimga moslashish bo'yicha yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.	• Iqlim o'zgarishi natijasida kuchli to'fonlar va tabiiy ofatlar sonining ortishi. • Ekstremal ob-havo sharoitlari qishloq xo'jaligiga zarar yetkazishi mumkin.
--	--

SWOT tahlili orqali AQSh va O'zbekistonning iqtisodiyoti va global miqyosdagi kuchli tomonlarini (Strengths), zaif tomonlari (Weaknesses), ularning imkoniyatlari (Opportunities) va tahdidlarni (Threats) baholashimiz mumkin.

1. Kuchli tomonlari (Strengths)

AQShning kuchli tomonlarini aytib o'tadigan bo'lsak, u dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri bo'lib, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularga katta mablag' ajratish imkoniyatiga ega hamda mamlakatda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or siyosiy dasturlar va ekologik standartlar mavjud. O'zbekiston bir qancha kuchli tomonlarga ega masalan, O'zbekiston quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lib, bu energiya tanqisligini bartaraf etishda muhim rol o'ynashi mumkin. Qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlar va suv tejovchi texnologiyalar joriy etilmoqda, bu esa iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

2. Zaif tomonlari (Weaknesses)

AQSh sanoatining uglerod chiqindilari yuqori bo'lib, bu iqlim o'zgarishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi. Turli shtatlarda ekologik qonunlar va yashil energiyaga bo'lgan yondashuv har xil bo'lib, yagona siyosat yuritishni qiyinlashtiradi. O'zbekiston iqtisodiyoti asosan qazilma yoqilg'ilarga bog'liq bo'lib, ekologik muammolarni yanada kuchaytiradi. Suv resurslarining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini pasaytirib, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.

3. Imkoniyatlari (Opportunities)

AQSh yashil texnologiyalarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Xalqaro iqlim kelishuvlarida yetakchilik qilish orqali ekologik siyosatni global miqyosda shakllantirish imkoniyatiga ega. O'zbekiston quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni kengaytirish mamlakatning energetik mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Ekologik toza texnologiyalar va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

4. Tahdidlar (Threats)

AQShda iqlim o'zgarishi natijasida kuchli to'fonlar, o'rmon yong'inlari va qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Qishloq xo'jaligida hosildorlikning pasayishi oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. O'zbekistonda cho'llanish jarayonining tezlashishi ekin maydonlarining qisqarishiga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kamayishiga olib keladi. Iqlim o'zgarishi tufayli suv tanqisligi kuchayib, bu sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishini cheklashi mumkin.

Global iqlim o'zgarishi AQSH va O'zbekiston iqtisodiyotiga turli darajada ta'sir qilmoqda. AQSHda innovatsiyalar va yashil energiyaga o'tish imkoniyati yuqori bo'lsa, O'zbekistonda suv taqchilligi va qishloq xo'jaligi inqirozi asosiy tahdidlardan biri. SWOT tahlili asosida shuni ta'kidlab o'tish joizki, har ikkala davlat iqlim o'zgarishiga moslashish uchun texnologiyalar va ekologik siyosatni yanada rivojlantirishga intilishi kerak.

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishlari iqtisodiy yo'qotishlarni oshirib, qishloq xo'jaligi va infratuzilmaga jiddiy ta'sir qilmoqda. AQShda bu zarar infratuzilma va energetika sohasida sezilarli bo'lsa, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va suv resurslarining yetishmovchiligi asosiy muammolar hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi natijasida AQShda sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlarida yillik zarar 200 milliard dollarni tashkil etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda hosildorlikning kamayishi va suv tanqisligi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir qilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bu muammolarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Hukumatlar ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yashil texnologiyalar, barqaror energiya manbalari va iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalarini amalga oshirishlari zarur.

Muhokama

Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri chuqur va kompleks xarakterga ega. AQShda asosiy muammolar infratuzilma, energetika va qishloq xo'jaligi sohalariga ta'sir qilsa, O'zbekistonda suv resurslarining kamayishi, hosildorlikning pasayishi va urbanizatsiya jarayonlariga salbiy ta'sir etmoqda. AQSh hukumatining muqobil energiya va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalari infratuzilmani barqarorlashtirish va iqtisodiy zararni kamaytirishga qaratilgan. O'zbekistonda esa suv resurslarini samarali boshqarish, energetika tizimini modernizatsiya qilish va ekologik muhofaza tadbirlarini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va ilmiy izlanishlarning ahamiyati katta. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish uchun xalqaro tashkilotlar, xususiy sektor va hukumatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi.

Xulosa

Global iqlim isishi iqtisodiyotning turli xil sohalariga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. AQSh va O'zbekiston misolida ushbu ta'sirlar tahlil qilindi va natijada yashil iqtisodiyotga o'tish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash iqlim o'zgarishlarining iqtisodiy oqibatlarini yaxshilash asosiy va tog'ri yo'l ekanligi aniqlandi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega: Sanoat va energetika sohalarida uglerod chiqindilarini kamaytirish; Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni olib kirish; Muqobil energiya manbalariga investitsiyalarni jalb qilib, ularga etiborni ko'proq qaratish; Barqaror urbanizatsiya va infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash, Xalqaro hamkorlik va ilmiy izlanishlarni rivojlantirish. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar birgalikda ishlash orqali global iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karl, T. R., Melillo, J. M., & Peterson, T. C. (2009). Global Climate Change Impacts in the United States. Cambridge University Press. Retrieved from <https://nca2009.globalchange.gov>
2. Lal, P., Alavalapati, J. R. R., & Mercer, E. D. (2011). Socio-economic impacts of climate change on rural United States. Mitigation and Adaptation Strategies for Global Change, 16(8), 819–844. <https://doi.org/10.1007/s11027-011-9295-9>
3. Mirzabaev, A. (2013). Climate Volatility and Change in Central Asia: Economic Impacts and Adaptation. Rheinischen Friedrich-Wilhelms-Universität zu Bonn. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/246547400_Climate_Volatility_and_Change_in_Central_Asia_Economic_Impacts_and_Adaptation
4. World Bank. (2021). The Economics of Climate Change. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/topic/climatechange>
5. International Monetary Fund (IMF). (2023). Climate Change and Global Economic Stability. Retrieved from <https://www.imf.org/en/Topics/climate-change>